# PSIXOTRENING MASHQLARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Ibragimova Maryamhon G`ulomovna
QDPI o`qituvchisi
Tel: 90 565-77-66 e-mail: ibragimovamaryamxon1@gmail.com

Meliqo`ziyeva Dildora Tavakkaljon qizi
QDPI- talabasi

**Annotatsiya**
Barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-korini egallashi uchun psixofiziologik xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi. Psixologik trening mashg‘ulotlari o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarida yordam beradi. Shuningdek, barcha trening mashg‘ulotlaridan yakuniy xulosa chiqarish va olingan natijalar asosida o‘quvchilarning ta’limning keyingi bosqichi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olishlari yuzasidan to‘g‘ri tavsiya berishga imkon yaratadi.

**Аннотация**
Он отражает требования, предъявляемые к психофизиологическим характеристикам для формирования совершенного человека и занятия им подходящей профессией. Психологические тренинги помогают студентам в профориентацииКроме того, на основе полученных результатов можно сделать окончательный вывод по всем учебным занятиям и дать правильную рекомендацию относительно следующей ступени обучения, курсов академического лицея и профессионального колледжа.

**Abstract**
The formation of a perfect person reflects the requirements for his psychophysiological characteristics in order to occupy a suitable profession. Psychological training sessions help students in career guidance. It also makes it possible to draw a final conclusion from all the training sessions and make the right recommendation regarding the next stage of education, academic lyceum and vocational college courses based on the obtained results.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta’lim yo‘nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolledji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan xolda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma’naviy jihatdan etuk, o‘z vatanining tarixi, bugungi va kelajagi

uchun qayg‘uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-korini egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib, yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi, ya’ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biron-bir kasb sohasida ta’lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida etuk va malakali mutaxassis bo‘lib etishishi tushiniladi. Kasblar olamida klassifikatsiyadan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish uni ukuvchilarga tushuntirib borish orkali, kasb va mutaxassisliklar paydo bo‘lib borayotgan vaziyatda o‘quvchi «aynan o‘zining kasbi» va u haqida avvaldan ma’lumotlar olish, zamonaviy ishlab chiqarish sohalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Kasb klassifikatsiyasi turlari bilan o‘quvchilarni tanishtirishdan oldin kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgiga bo‘lgan talablarni o‘quvchilarga aytib o‘tilishi lozim, chunki klassifikatsiya uchun kasblarning xoxlagan belgilarini olish mumkin emas. Kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgi quyidagi talablarga javob berishi kerak :

1. Tanlangan kasb belgisi o‘zgarmas, muntazam bo‘lishi ;
2. Tanlangan kasb belgisi barchaga tushunarli bo‘lishi;
3. Tanlangan kasb belgisi aniq, yorqin bo‘lishi ;
4. Tanlangan kasb belgisi bitta belgi bo‘yicha faqat bitta guruhga tegishli bo‘lishi.

Talablardan belgi faqat bitta talabgagina javob bera olmasa ham bu kasb belgini klassifikatsiya qilish uchun asos qila olmaymiz. O‘quvchilar e’tiboriga kasblarning beshta belgisi (mehnat nomi; mehnat xarakteri; mehnat mahsuloti; mehnat qilish uchun talab etiladigan bilim, ko‘nikma, malaka darajasi; kasblarni mamlakat xo‘jaligining biror sohasiga tegishli bo‘lishi ) havola etiladi. Ular har bir kasb belgisidagi kamchilik, ya’ni kasb klassifikatsiyasi uchun tanlanayotgan belgilarni to‘rtta talabdan qaysi biriga javob bera olmasligini aniqlashlari lozim

Hozirgi paytda psixologik trening mashg‘ulotlari o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarida yordam beradi. Shuningdek, barcha trening mashg‘ulotlaridan yakuniy xulosa chiqarish va olingan natijalar asosida o‘quvchilarning ta’limning keyingi bosqichi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olishlari yuzasidan to‘g‘ri tavsiya berishga imkon yaratadi degan umiddamiz.

Bu interfaol o‘yin mashhur «Breyn ring» yoki «Nima, qaerda, qachon ?» o‘yinlari ko‘rinishida tashkil etilishi va olib borilishi mumkin. Bunda boshlovchi va komandalar ishtirok etishadi xamda o‘yin bir necha raundlardan iborat bo‘ladi.

Hamma raundlar o‘ynab bo‘lingandan so‘ng guruhlar to‘plagan ballari hisoblanadi va g‘oliblar aniqlanadi. Xususan, nechtasi aynan to‘g‘ri javobga mos kelganligi va nechtasi to‘g‘ri javobga ancha yaqin bo‘lganligiga e’tibor beriladi. Ushbu interfaol usul orqali o‘quvchilarniing kasblar olami haqidagi bilimlari tashxis qilish va shu bilan birga o‘yin jarayonida to‘liq va noaniq bo‘lgan tasavvurlarini to‘ldirish, to‘g‘rilash imkoni paydo bo‘ladi. O‘quvchilarda narsa va hodisalarning muhim va nomuhim , birlamchi va ikkinchi darajali belgilarini aniqlay olish va ajrata olish malakasini shakllantirish, ma’lumotlarni analiz-sintez qilish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

“Telefon o‘yini”. Guruh a’zolaridan navbat bilan telefonda o‘zi tanlagan abonent bilan 30 sekund o‘zi xoxlagan mavzuda gaplashadi. Kuzatuvchilar o‘zini tutishi, klient bilan muomalasi, narigi tarafdagi shaxs bilan gaplashuvchi o‘rtasidagi yaqinlik, o‘zaro manosabatlarni taxlil qiladilar va kerakli maslaxatlar beradilar.

“Breynstorming”. Bunda turli mavzularda suxbat o‘tkaziladi, misol uchun quyidagi mavzularni taklif qilish mumkin:

-Yomon rahbar – bu......

-XXI yoshlari qanday bo‘ladi? .....

-Boshqa planetalardagi mavjudotlar ....

-Bosh muxandislik – bu ....

-Menejment mening nuqtai-nazarimda .....

-Yaxshi shifokor bo‘lish uchun ..... va h.k.

Bu savollarni kasblarga qarab o‘zgartirishingiz mumkin. Kasblar haqida ma’lumot berib o‘tiladi.

“Bo‘sh o‘rin” o‘yini

O‘yindan kuzatilgan maqsad: kasb talablari bilan odam fazilatlarini bir-biri bilan bog‘lanishini o‘rganishdir. O‘yin “Qobiliyat”, “Temperament”, “Xarakter” va ayniqsa “Kasbning odamga nisbatan talablari” mavzularini o‘rgangan chog‘da foydalanish mumkin

O‘yinni o‘tkazish shartlari: o‘yinga (7-8 sinf) bir necha daqiqa vaqt ajratiladi. O‘yin uchun doska va maxsus tayyorlangan yo‘riqnomalar zarur.

O‘yin tartibi (bosqichlari): tayyorgarlik bosqichi. O‘quvchilar “Professogramma”, “Mayillilik”, “Qobiliyat”, “Salomatlikkka qo‘yilgan talablar”, “Temperament”, “Xarakter” , “Kasbning odamga nisbatan talablari” mavzulari bilan tanishtirgandan keyin bu o‘yindan foydalanish maqbuldir. Basharti ana shunday imkoniyat bo‘lmasa, o‘yin davomida qisman ushbu mavzuga taqalish mumkin, lekin unda o‘yin uncha samarali bo‘lmaydi.

1.O‘yinni nomi e’lon qilinadi va o‘yinig 4 nafar asosiy qatnashchisi tanlanadi, ular darhol juft bo‘lib olishadilar.

2.O‘yinni olib bruvchilar hammani umumiy yo‘riqnoma bilan tanishtiri, “Buyuk kinorejissyor”lardan (tanlangan iki juft) ikki guruh durdona filmlarni suratga oladi, filmlar xilma-xil bo‘lib, lekin filmlarning har birida koxonalar o‘yinida ko‘rib chiqilayotgan kasbga qarab, maktablar, avtomobil xo‘jaliklari va shu kabilar turmushdan olingan ko‘rinishlar bor.

3.Rejissyorlarni yo‘lakka yurish oldidan har bir guruhga yordamchi (yozma) yo‘riqnoma beriladi, ular bu so‘riqnoma bilan yo‘lakda tanishadilar. Rejissyorlar yo‘riqnomalarga belgi qilmaslik uchun sho‘lari bilan qohoz va ruchka oladilar.

4.Rejissyorlar tanlash mezonlarini belgilagan chog‘ida o‘yinni olib boruvchi sinfdagilar bilan quyidagi ishni amalga oshiradi. Sinfdagilarga kasbga oid qator xislatlarning ro‘yxati o‘qib beriladi. Ko‘rib chiqiladigan kasb uchun 5 nafar eng maqbul (yoki g‘oya maqbul bo‘lgan) ishtirokchi tanlash yoki birdaniga ikki kasb uchun usta va ishchi tanlash taklif qilinadi. Bunday xolda o‘yin ko‘p vaqtni olib uni tashkil qilish murakkabroq bo‘ladi, albatta taklif qilinadi. Bunday o‘yinni olib boruvchi o‘quvchilarning takliflarini doskaga yozib qo‘yish, buni bajarishni (doskada yoki ayrim varaqda yozishni) o‘quvchilardan biriga iltimos qilish mumkin.

5.Rejissyorlar guruhlari navbat bilan sinfga kirib, bir daqiqa ichida tanlangan artistlarni aytib beradilar. Bunda artislar o‘z joylarida qoladilar, rejissyorlar esa o‘zlarining tanlangan 5 mezonlarini darhol aytib beradilar. Basharti bir kishini u guruh ham tanlagan bo‘lsa, bu kishi tanlashda bundan buyon qatnashmaydi, guruh esa o‘ziga boshqa artistni tanlaydi, o‘yinni olib boruvchi ikki marta tanlangan o‘quvchini maqtab qo‘yishi mumkin.

6.Tanlangan va birmuncha yaxshi mezonlarga baho berish uchun mezonlarning barcha variantlari (rejissyorlarning ikki guruh va sinf mezonlari) doskaga yozib qo‘yilishi mumkin, shundan keyin 5-7 daqiqa kichik muhokama tashkil qilish mumkin. Har bir guruh boshqa mezonlarni birmuncha muvaffaqiyatli chiqqanlarini tanlashadi yoki o‘z variantlarini yoqlaydi. Bahs cho‘zilib ketmasligi uchun hal qiluvchi so‘zni boshqaruvchi aytishi mumkin.

7.Kimning tanlangan artistlari ancha omadli chiqqanini aniqlash uchun o‘yinini olib boruvchi ularni ishdan tekshirib ko‘rishni taklif qiladi. Rejissyorlar bilan birgalikda olingan ko‘rinishni tayyorlashlari va o‘ynashlari lozim. O‘yinni olib boruvchi har bir guruhga tasodifiy tarzida yo‘riqnoma tanlashni taklif qiladi. Tayyorlarlik ko‘rish uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

8.O‘yinni olib boruvchi har ikki guruh rejissyorlarini navbat bilan juft artislarni sinfga taklif qiladi, bulardan har biri topshiriqlarni ko‘rsatadi. So‘ngra esa 3 daqiqa davomida o‘z ishlab chiqargan vaziyatni o‘ynab beradi.

O‘yinni aniqlash imkoniyatlari: o‘yinda u yoki bu kasblarning odamga nisbatan talablari to‘g‘risida maktab o‘quvchilarining tasavvurlarini, shuningdek turli xislatlarini rivojlantirish yo‘llari haqida ularning tasavvurlarini bilib olish mumkin. Sahna asarlarida ba’zan o‘quvchilarni kasb egalashga tayyorgarligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Tipik qiyinchiliklar: artistning sahna asarlarida qatnashishdan kasallik tufayli bosh tortishi kamdan-kam xollarda ro‘y beradi. Bu xol vaziyatni o‘ynashga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida sodir bo‘lsa, rejisyorlarni sinfdan zudlik bilan boshqa artistlarni tanlash, taklif qilishi mumkin. Agar bunday bosh tortish sahnaga chiqish oldidan ro‘y bergan bo‘lsa uni rejissyorlardan biriga almashtirish mumkin. O‘yinni olib boruvchi bu artistni uyaltirmaslik kerak, chunki u keyingi o‘yindan bosh tortishi mumkin.

O‘yindan foydalanish istiqbollari: vaqt ko‘p bo‘lgan chog‘da ikki komanda bilan o‘ynash mumkin. Bunday holda o‘yinda ko‘plab o‘quvchilar qatnashadi. G‘oyat xilma-xil kasblar uchun ancha xarakterli va namunali bo‘lgan nazariyalarni qidirish muhimdir. Tomoshalarda ba’zi ishchi asboblardan foydalanish mumkin. Masalan, hamma egovni to‘g‘ri ushlashni biladi, deb bo‘lmaydi, ko‘pchilik asboblarni qanday qilib qo‘lga olish kerakligini umuman bilishmaydi.

Xulosa – o‘qituvchi-ustozning bilimi doimo rivojlanishda va doimo harakatda bo‘lishi lozim. Shundagina ta’lim-tarbiyada,ijodkorlikda katta burilish bo‘ladi.

**Adabiyotlar:**

1.G'ulomovna, I. M. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS EFFECT ON THE QUALITY OF EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 138-142.

2.G'ulomovna, I. M. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 143-146.

3.Ibragimova, M. (2016). ROL VNEUROCHNIX ZANYATIY. Ucheniy XXI veka, 55

4.G'ulomovna, I. M. (2023). Ilg’or Zamonaviy Pedagogik Texnologiyalarni Amaliyotda QoLlash. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 185-190.

5.G'ulomovna, I. M. (2022). PRIORITY DIRECTIONS OF THE SCIENCE OF PROFESSIONAL GUIDELINES.

6.Maryam, I., & Mukhlisa, U. The Use of Interactive Methods in the Orientation of Students to Entrepreneurial Activity. JournalNX, 7(03), 223-226.

7. Ibragimova, M., Usmonova, M., & Yusufxodjaeva, F. (2022). This article discusses the idea that preparing students for work at the current stage of education is one of the most important issues in the education and upbringing of the younger

1 Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.4 (2022): 304-309.

2 Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.

3 Ziroat, Azizova. "CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.5 (2022): 404-410.
4 Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1584-1590.
5 Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.
6 Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1584-1590.
7 Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.
8 Abduhafizovna, Melikuziyeva Mavluda, and Yigitaliev Mirzoxid. "Ways to increase the legal knowledge of primary school students." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 124-130.
9 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1370-1374.
10 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "" GENERAL PEDAGOGY" SCIENCE PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1365-1369.
11 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1370-1374.
12 Tolipova, O. I. "DEVELOPING STUDENT CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL PROBLEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.06 (2022): 58-61.
13 Botirova, M., S. Mirxayitova, and O. Tolipova. "PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE KERATIVENESS OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS."
14 Ikromovna, Tolipova Ozoda. "Formation of creativity characteristics in students of higher education organization based on CTEAM educational technology design

method." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 348-351.

15 OI, Tolipova. "APPROACHES TO THE STUDY AND UNDERSTANDING OF CREATIVITY TODAY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1319-1321.

16 Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.4 (2022): 304-309.

Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.4 (2022): 304-309.

1.Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1584-1590.

2.Исроилов, Ш. Ш. "РОЛЬ КОМАНДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ИГРОКА." Экономика и социум 3-1 (2021): 583-587.

3.Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "" GENERAL PEDAGOGY" SCIENCE PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1365-1369.

4. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "USING THE FINNISH EDUCATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1415-1420.

5. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "The process of development of professional and cognitive activity of students." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 267-268.

6. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THE ROLE OF ACTIVE LEARNING METHODS IN INCREASING THE LEARNING ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS IN INNOVATIVE EDUCATIONAL CONDITIONS." Conferencea (2022): 49-52.

7. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THE IMPORTANCE OF INCENTIVENESS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENT ACTIVITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.07 (2022): 68-71.

Anvarovna, Djurabaeva Ziroat. "THE ROLE OF FATHER AND MOTHER IN RAISING A GIRL." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 854-857.

Anvarovna, Djurabaeva Ziroat. "METHODS AND MEANS OF TEACHING." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 877-880.
Rakhimberdieva, Dzhuraboeva Ziroat. "Moral education in pedagogy." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 260-263.